

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 18- apreldagi
44- sonli buyrug'iga
ILOVA

Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (keyingi o'rinlarda – MHT – 2008) konsepsiyalari va “Zaxiralarni shakllantirish bo'yicha qo'llanma – 2017” kabi xalqaro andozalarga, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablariga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

Moddiy aylanma vositalar zaxiralari faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

Xomashyo va materiallar korxonada moddiy aylanma vositalar zaxirasida bo'lgan va ishlab chiqarish jarayonida oraliq iste'mol sifatida foydalaniladigan mahsulotlardir.

Ularga xomashyo, materiallar, yoqilg'i, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, konstruksiyalar, detallar, qadoqlash materiallari, inventarlar, xo'jalik jihozlari va shu kabi predmetlar kiradi.

Xomashyo va materiallar tarkibiga san'at asarlari yoki korxonalar tomonidan qimmatliklar sifatida sotib olingan qimmatbaho metallar va toshlar kirmaydi. Qimmatbaho toshlardan oraliq iste'mol sifatida ishlab chiqarishda foydalanilsa, ushbu qimmatliklar moddiy aylanma vositalar zaxirasi sifatida hisobga olinadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bu korxona tomonidan ishlab chiqarilgan, biroq texnologik jarayonda ko'zda tutilgan qayta ishlashning barcha

bosqichlaridan o'tmagan mahsulotlar (yarim tayyor mahsulotlar), shuningdek, buyurtmachilar tomonidan qabul qilinmagan tugallanmagan ishlardir.

Tugallanmagan ishlab chiqarishga yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari, tugallanmagan filmlar yoki kompyuter dasturlari va boshqa shu toifadagi zaxiralar ham kiradi.

Agar buyurtmachi bilan shartnoma tuzilmagan bo'lsa hamda ular uchun hech qanday to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, tugallanmagan qurilish va tugallanmagan kapital ta'mirlash ishlari hajmi (keyingi o'rinlarda – tugallanmagan ishlar) tugallanmagan ishlab chiqarish hisoblanadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish yetishtirilishi tugallanmagan biologik resurslar va boshqa tugallanmagan ishlab chiqarishga bo'linadi.

Yetishtirilishi tugallanmagan biologik resurslar bu hisobot davri oxirida odatdagi yakuniy mahsulot holiga keltirilmagan, o'stirish jarayonida bo'lgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining ishlab chiqarish resurslaridir.

Boshqa tugallanmagan ishlab chiqarish korxona tomonidan ishlab chiqarilgan, boshqa institutsional birliklarga yetkazib berish uchun tayyor bo'lgan odatdagi yakuniy mahsulot holatiga keltirilmagan, iqtisodiyot tarmoqlarida yetarli darajada qayta ishlanmagan, yetishtirilishi tugallanmagan biologik resurslardan tashqari mahsulotlarni va tugallanmagan ishlarni o'z ichiga oladi.

Tayyor mahsulot korxona tomonidan ishlab chiqarilgan, boshqa institutsional birliklarga yetkazib berishdan oldin qayta ishlash talab etilmaydigan, odatdagi yakuniy mahsulot holatida bo'lgan mahsulotlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan ishlab chiqarish jarayoni tugatilgan deb hisoblangan taqdirda, ulardan boshqa ishlab chiqarish jarayonida oraliq iste'mol sifatida foydalanilsa ham zaxiralarning bu turi tayyor mahsulot hisoblanadi.

Qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar chakana va ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan mijozlarga qayta sotish maqsadida sotib olingan tovarlardir.

Korxonalarning moddiy aylanma vositalar zaxirasiga kiritilgan, qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar sotib oluvchilar narxida baholanadi. Qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar ularni sotib olgan korxona tomonidan qayta ishlanmaydi.

Harbiy maqsadlardagi moddiy aylanma vositalar bu o'q-dorilar, qurol yetkazib beruvchi yoki qurol-yarog' tizimi kabi bir marta ishlatiladigan vositalardir.

Qimmatbaho buyumlar ma'lum bir muddat saqlanadigan yuqori qiymatga ega bo'lgan tovarlar bo'lib, ulardan ishlab chiqarish yoki iste'mol maqsadlarida foydalanilmaydi.

Ishlab chiqarish hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo'lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o'zida aks ettiradi.

Oraliq iste'mol ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar sifatida iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi (asosiy fondlar iste'moli bunga kiritilmaydi).

Yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'raligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Asosiy narx ishlab chiqaruvchi tomonidan xaridordan tovar yoki xizmatning birligi uchun olinishi lozim bo'lgan, mahsulot ishlab chiqarilishi yoki sotilishi natijasida to'lanishi lozim bo'lgan har qanday soliqni ayirib, olinadigan har qanday subsidiyalarning qo'shilganiga teng bo'lgan narxdir. U ishlab chiqaruvchi tomonidan hisobvaraqa-fakturalarda alohida ko'rsatiladigan har qanday transport xarajatlarini o'z ichiga olmaydi.

2. Moddiy aylanma vositalar zaxirasining o'zgarishi zaxiralarning kelib tushgan qiymatidan chiqib ketgan qiymatini hamda hisobot davri mobaynida zaxirasida bo'lgan tovarlarning joriy davrdagi yo'qotishlari qiymatini chiqarib tashlash orqali aniqlanadi. Bunda, zaxiralar o'zgarishi (kelib tushishi yoki chiqib ketishi) ularni sotish va sotib olish hamda ulardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish natijasida yuzaga keladi.

3. Barcha tovar va xizmatlarni baholashda muvofiqlikni ta'minlash uchun zaxiralar kelib tushish va chiqib ketish vaqtidagi bozor narxlarida baholanadi. O'z ishlab chiqarishi natijasida hosil bo'lgan moddiy aylanma vositalar zaxirasi asosiy narxlarda baholanadi.

MHT–2008 metodologiyasiga muvofiq iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moddiy aylanma vositalar zaxiralarning o'zgarishi quyidagi zaxiralarning oshishi (kamayishi)ning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

ishlab chiqarish zaxiralari;
tugallanmagan ishlab chiqarish;
harbiy maqsadlardagi moddiy aylanma vositalari;
qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar;
korxonada saqlanayotgan tayyor mahsulot;
qishloq xo'jaligi mahsulotlarining zaxiralari;
o'rmon xo'jaligi mahsulotlari zaxiralari;
davlat moddiy zaxiralari.

4. Moddiy aylanma vositalar zaxirasining o'zgarishi hisobi iqtisodiyot sektorlari bo'yicha quyidagicha shakllantiriladi:

a) nomoliyaviy sektordagi moddiy aylanma vositalar zaxirasining o'zgarishi korxonaning moliyaviy holati to'g'risidagi hisobot bo'yicha davr oxiri va davr boshidagi zaxiralar qiymati o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Agar korxonalarning buxgalteriya hisobida zaxiralar mahsulotni zaxiraga qabul qilingan vaqtdagi narxlarda baholansa, u holda zaxiralarning o'zgarishi

mahsulotning zaxirada qolgan vaqtdagi narx o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan qiymatni ham o'z ichiga oladi;

b) moliyaviy tashkilotlarda moddiy aylanma vositalar zaxirasiga odatda ofis anjomlari, asosiy vositalar tarkibiga kirmaydigan uskunalar, kompyuter, texnik vositalar va avtoulavlarga ehtiyot qismlar, turli xil maishiy materiallar, past qiymatli va tez eskiradigan buyumlar kiritiladi;

d) moddiy aylanma vositalar zaxirasining davlat boshqaruvi sektoriga xos bo'lgan turi bu davlat zaxirasi hisoblanadi. Ularning tarkibiga davlat tomonidan favqulodda vaziyatlar (tabiiy, texnogen ofatlar, harbiy holatlar) paytida foydalaniladigan strategik materiallar, don, oziq-ovqat mahsulotlari va o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlar zaxiralari kiradi;

e) uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning zaxirasida tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar bo'lmaydi. Ayrim hollarda tovarlar ishlab chiqarish yoki savdo bilan shug'ullanuvchi mazkur sektor birliklarida ushbu zaxiralar mavjud bo'lishi mumkin.

Notijorat tashkilotlarda moddiy aylanma vositalar zaxirasiga odatda ofis anjomlari, asosiy vositalar tarkibiga kirmaydigan uskunalar, kompyuter, texnik vositalar va avtoulavlarga ehtiyot qismlar, turli xil maishiy materiallar, arzonbaho va tez eskiradigan buyumlar kiritiladi;

f) uy xo'jaliklari sektorida moddiy aylanma vositalar zaxirasiga asosan yetishtirilishi tugallanmagan biologik resurslar va oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasi kiradi.

Moddiy aylanma vositalar zaxirasi o'zgarishini baholashda narxlar o'zgarishi ta'sirini bartaraf qilish uchun hisobot davri boshi va oxiridagi zaxiralarni ushbu davrning o'rtacha narxlarida baholashdan iborat soddalashtirilgan usul qo'llaniladi.

2-bob. Moddiy aylanma vositalar zaxirasi qiymatini baholashda foydalaniladigan ma'lumotlar manbalari

5. Moddiy aylanma vositalar zaxirasi qiymatini baholashda asosiy ma'lumotlar manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

a) Statistika hisoboti ma'lumotlari:

- moddiy aylanma vositalar zaxirasining turlari bo'yicha tarmoqlar kesimida yillik ma'lumotlarni shakllantirishda "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot" ma'lumotlaridan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi). Ushbu hisobot (kichik korxona va mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari) tijorat tashkilotlari bo'lgan yuridik shaxslar, ularning alohida bo'linmalari, chet el investitsiyalari va xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar va ularning alohida bo'linmalarini qamrab oladi.

Shuningdek, ushbu hisobot ma'lumotlaridan (kichik korxona va

mikrofimalar, fermer xo‘jaliklari, banklar va sug‘urta tashkilotlaridan tashqari) tijorat tashkilotlari bo‘lgan yuridik shaxslar uchun moddiy aylanma vositalar zaxirasining aylanish davrini aniqlashda ham foydalaniladi;

- moddiy aylanma vositalar zaxirasining turlari bo‘yicha tarmoqlar kesimida choraklik ma‘lumotlarni shakllantirishda “Tashkilotning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida hisobot”i ma‘lumotlaridan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi). Ushbu hisobot (kichik korxona va mikrofimalar, fermer xo‘jaliklari, banklar, sug‘urta tashkilotlaridan tashqari) tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalarini qamrab oladi;

- mikrofimalar va kichik korxonalarda moddiy aylanma vositalar zaxirasining turlari bo‘yicha tarmoqlar kesimida yillik ma‘lumotlarni shakllantirishda “Mikrofirma va kichik korxonaning hisobot”i ma‘lumotlaridan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi). Shuningdek, ushbu hisobot ma‘lumotlaridan mikrofimalar va kichik korxonalar moddiy aylanma vositalar zaxirasining aylanish davrini aniqlashda ham foydalaniladi;

- sug‘urta tashkilotlarining moddiy aylanma vositalar zaxirasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni shakllantirishda “Sug‘urta tashkiloti faoliyati to‘g‘risida hisobot” ma‘lumotlaridan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi);

- qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer xo‘jaliklari va dehqon xo‘jaliklarining moddiy aylanma vositalar zaxirasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni shakllantirishda “Qishloq xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida hisobot”, “Fermer xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risidagi hisobot”, “Dehqon xo‘jaliklari faoliyati to‘g‘risidagi hisobot” ma‘lumotlaridan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

b) Statistika kuzatuvlari ma‘lumotlari:

- mikrofirma va kichik korxonalarning moddiy aylanma vositalar zaxirasi to‘g‘risidagi choraklik ma‘lumotlarni shakllantirishda “Mikrofirma va kichik korxonaning faoliyatini kuzatish so‘rovnomasi” ma‘lumotlaridan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

3-bob. Yetishtirilishi tugallanmagan biologik resurslarning joriy bozor qiymatini baholash

6. Yetishtirilishi tugallanmagan biologik resurslar bir martalik va ko‘p martalik foydalaniladigan resurslarga ajratiladi. Bir martalik foydalaniladigan biologik resurslar tugallanmagan ishlab chiqarish zaxirasi

hisoblanadi. Ularga bir yillik qishloq xo‘jaligi ekinlari, imoratbop daraxtlar, go‘sht uchun boqilayotgan qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalar kiradi.

Shuningdek, ixtisoslashgan ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetishtirilayotgan va sotish yoki yetkazib berishga tayyor bo‘lmagan hayvonlar yoki daraxtlar tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida qaraladi.

7. Ko‘p marta foydalaniladigan biologik resurslar asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi sifatida hisobga olinadi. Ularga ishlab chiqarish yoshiga yetgan va ishlab chiqarishda foydalanishga tayyor bo‘lgan hayvonlar hamda yetishtirilayotgan ko‘p yillik mevali daraxtlar kiradi.

O‘rmonlar iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy aktiv sifatida foydalanishdan oldin institutsional birliklarga tegishli bo‘ladi hamda egalari uchun iqtisodiy foyda manbai hisoblanadi. Shuning uchun, o‘rmonlar moddiy aylanma vositalari zaxirasi tarkibida tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobga olinadi (MHT – 2008, 10.169, 10.89-bandlar).

MHT – 2008 tavsiyasiga ko‘ra (13.41-band), kesilmagan imoratbop o‘rmon daraxtlari qiymati ularni amaldagi narxlarda sotishdan tushadigan tushumdan kelgusida o‘rmonni parvarishlash, kesish uchun qilingan xarajatlar va boshqa xarajatlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Boqilayotgan chorva mollari va parrandalar qiymati qishloq xo‘jaligi tashkilotlari, fermer xo‘jaliklari va dehqon xo‘jaliklari bo‘yicha qishloq xo‘jaligi statistikasi bazasida mavjud bo‘lgan chorva mollari va parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarga hamda ishlab chiqaruvchi narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslanib hisoblaniladi.

8. Dehqonchilik bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish zaxirasi qiymati qishloq xo‘jaligi statistikasining qishloq xo‘jaligi tashkilotlari, fermer va dehqon xo‘jaliklari bo‘yicha bahorgi va kuzgi tugallanmagan qishloq xo‘jaligi ekinlari qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida shakllantiriladi. Zaxiralarning o‘zgarishi hisobot davrining oxiri va boshidagi zaxira qiymati o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

4-bob. Moddiy aylanma vositalar zaxirasining o‘rtacha narxlarda o‘zgarishini hisoblash

9. Hisobot davrining o‘rtacha narxlarida moddiy aylanma vositalar zaxirasi o‘zgarishini baholash tartibi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi bosqichda statistika kuzatuv shakllari ma’lumotlari asosida hisobot davri (chorak, yil) boshi va oxiriga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha moddiy aylanma vositalar zaxirasining qiymati aniqlanadi.

Shu maqsadda, kichik tadbirkorlik sub’ektlari hisoblanmagan tashkilotlar tomonidan choraklik taqdim etiladigan “Tashkilotlarning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida hisobot”ning tegishli satrlaridan choraklik moddiy aylanma vositalar zaxiralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinadi.

Shu bilan birga, kichik tadbirkorlik sub’ektlari hisoblanmagan tashkilotlar tomonidan yil oxiriga (to‘rtinchi chorak uchun) yillik taqdim etiladigan “Tashkilot xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi hisobot”dan

ishlab chiqarish zaxiralari to'g'risidagi ma'lumotlar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida olinadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yillik taqdim etiladigan "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" tegishli sartlaridan kichik korxona va mikrofirmalarning moddiy aylanma vositalar zaxiralari to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi.

4 chorak (yil) uchun taqdim etiladigan yuqorida ko'rsatilgan "Tashkilotlarning moliyaviy ahvoli to'g'risida hisobot" va "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi hisobot"larining moddiy aylanma vositalar zaxiralari to'g'risidagi ma'lumotlari o'rtasida sezilarli tafovutlar yuzaga kelganda "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi hisobot"i ma'lumotlariga tayaniladi. Shu bilan birga, ushbu ma'lumotlar buxgalteriya balansining tegishli ma'lumotlari bilan ham belgilangan tartibda solishtirib boriladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Ikkinchi bosqichda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moddiy aylanma vositalarining zaxirada bo'lgan davri aniqlanadi.

Buning uchun quyidagi formulaga binoan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hisobot davridagi xomashyo va materiallar zaxiralarining o'rtacha qiymati va oraliq iste'mol (zaxiralarning boshqa turlari uchun ishlab chiqarish hajmi)ning nisbati orqali hisoblanadi hamda zaxiralarning aylanish davri deb ataladi:

$$TR = \frac{In_{t_2} + In_{t_1}}{2} * \frac{1}{IC} * (t_2 - t_1),$$

bu yerda,

TR – moddiy aylanma vositalar zaxiralarining aylanish davri, oylarda;

In_{t_1}, In_{t_2} – hisobot ma'lumotlari asosida shakllantiriladigan hisobot davri boshi va oxiriga moddiy aylanma vositalar zaxiralarining qiymati;

IC – hisobot davrida mahsulotni ishlab chiqarish uchun qilingan oraliq iste'mol (ishlab chiqarish hajmi);

$t_2 - t_1$ – hisobot davri oxiri va boshi oralig'idagi davr.

Uchinchi bosqichda hisobot davrining o'rtacha narxlarida moddiy aylanma vositalar zaxirasining o'zgarishi baholanadi.

Yuqorida keltirilganidek, statistika kuzatuvlariga muvofiq iqtisodiy faoliyat turlari kesimida hisobot davri boshi va oxiridagi zaxiralarning qiymati aniqlab olinadi.

Hisobot davrining o'rtacha narxlarida zaxiralar qiymatining o'zgarishi mos tovarlar va xizmatlar narx indekslaridan foydalangan holda, yuqorida aniqlangan moddiy aylanma vositalar zaxiralarining aylanish davridan kelib chiqib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$ChIn_{\Delta} = In_{t_2} * \frac{\bar{I}_p}{\bar{I}_{p0}} - In_{t_1} * \frac{\bar{I}_p}{\bar{I}_{p0}}$$

bu yerda,

$ChIn_{\Delta}$ – hisobot davrida zaxiralar qiymatining o‘rtacha narxlarda o‘zgarishi;

In_{t_1}, In_{t_2} – hisobot davri boshi va oxiriga moddiy aylanma vositalar zaxiralarining qiymati;

$\bar{I}_{p0}$ – bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri boshida zaxirada saqlangan tovarlarning o‘rtacha narx indeksi;

$\bar{I}_{pn}$ – bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri oxirida zaxirada saqlangan tovarlarning o‘rtacha narx indeksi;

$\bar{I}_p$ – bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri o‘rtacha narxlar indeksi.

5-bob. Moddiy aylanma vositalar zaxirasi qiymatining narxlar o‘sishi (kamayishi) hisobiga o‘zgarishi (xolding foyda (zarar))ni hisoblash

10. Moddiy aylanma vositalar zaxirasining fizik hajmi o‘zgarishi korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijasida, shuningdek, noto‘g‘ri saqlash natijasida yo‘qotilish yoki boshqa favqulodda omillar natijasida ro‘y berishi mumkin (MHT – 2008, 10.131, 12.58-bandlar). Moddiy aylanma vositalar zaxirasi hajmlarining o‘zgarishi bilan birga zaxiralar narxlarida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, moddiy aylanma vositalar zaxirasining ma’lum davr davomida joriy qiymatlari (joriy narxlarda) o‘zgarishi mazkur zaxiralarning narxlar o‘zgarishi va ularning hajmlari o‘zgarishi natijasida yuz beradi.

Moddiy aylanma vositalar zaxirasidagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun har bir zaxira turi bo‘yicha narx o‘zgarishini hisobga olish zarur. Biroq, ko‘p hollarda zaxiralarning narx o‘zgarishlarini bevosita aniqlash imkoni mavjud emas. Bunday hollarda, zaxiralarning joriy narxlardagi qiymatini ba’zi bir mos keladigan o‘zaro bog‘liq zaxiralar savati uchun hisoblangan narx indeksi yoki umumiy narx indeksi yordamida deflyatsiyalash usuli orqali aniqlanadi.

Bunda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha korxonalarning mahsulotlar (xizmatlar)ni ishlab chiqarish uchun qilgan xarajatlari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirishda “Korxona va tashkilotlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga yo‘naltirilgan xarajatlar tarkibining tanlama kuzatuv” ma’lumotlaridan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Moddiy aylanma vositalar zaxirasini saqlash davrida narxlarning o‘zgarishi natijasida “Xolding foyda (zarar)” yuzaga keladi (MHT – 2008, 12.75, 16.34-bandlar).

Hisobot davri uchun narxlar o'zgarishi hisobiga moddiy aylanma vositalar zaxirasi qiymatining o'zgarishi, "Xolding foyda (zarar)" quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\text{bu yerda, } HG = (In_{t_2} - In_{t_1}) - \left(In_{t_2} * \frac{\bar{I}_p}{\bar{I}_{pn}} - In_{t_1} * \frac{\bar{I}_p}{\bar{I}_{p0}} \right) \text{ hisobot}$$

davri uchun narxlar o'zgarishi hisobiga moddiy aylanma vositalar zaxirasi qiymatining o'zgarishi, "Xolding foyda (zarar)";

In_{t_1}, In_{t_2} – hisobot davri boshi va oxiriga moddiy aylanma vositalar zaxiralarining qiymati;

$\bar{I}_{p0}$ – bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri boshida zaxirada saqlangan tovarlarning o'rtacha narx indeksi;

$\bar{I}_{pn}$ – bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri oxirida zaxirada saqlangan tovarlarning o'rtacha narx indeksi;

$\bar{I}_p$ – bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri o'rtacha narxlar indeksi.

Hisobot davri uchun narxlar o'zgarishi hisobiga moddiy aylanma vositalar zaxirasi qiymatining o'zgarishi, ya'ni "Xolding foyda (zarar)" moddiy aylanma vositalar zaxiralar qiymatining joriy narxlarda o'zgarishi va o'rtacha narxlarda o'zgarishi o'rtasidagi farqni ifodalaydi.

11. Moddiy aylanma vositalar zaxirasini deflyatsiyalash iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha emas, balki mahsulot guruhlari bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq (MHT – 2008, 15.157-band). Agar ayrim mahsulotlar narxining o'zgarishi narxlarning umumiy o'zgarishidan sezilarli darajada farq qilsa, ushbu mahsulotni iqtisodiy tarkibga yaqin narxlar bo'yicha deflyatsiyalash mumkin.

Zaxiralar tarkibi bo'yicha narx o'zgarishlarini yetarli darajada kuzatish imkoni bo'lmagan hollarda ishlab chiqaruvchilar va iste'mol narxlari yig'ma indekslaridan foydalanish tavsiya etiladi.

12. Xomashyo va material shaklidagi moddiy aylanma vositalar iste'mol narxlari indeksi yordamida; tayyor mahsulotlar, qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar va tugallanmagan ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi yordamida deflyatsiyalanadi (MHT – 2008, 10.126, 10.143, 13.39-bandlar).

6-bob. Yakuniy qoidalar

13. Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'rtacha narxlarda o'zgarishi hamda hisobot davri uchun narxlar o'zgarishi hisobiga moddiy aylanma vositalar zaxirasi qiymatining o'zgarishi, ya'ni "Xolding foyda

(zarar)” hisob-kitoblarini MHT – 2008 talablariga muvofiq amalga oshirishda uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

14. Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o‘zgarishi hisob-kitoblarini mazkur uslubiy nizom asosida amalga oshirilishi ishlab chiqarish va yakuniy iste’mol usulida hisoblanadigan yalpi ichki mahsulot hisob-kitoblarining to‘liqligi va sifatliqligini ta’minlash bilan birga boshqa mamlakatlarning mos ma’lumotlari bilan taqqoslash imkonini beradi.

15. Rasmiy statistika ma’lumotlarini taqdim etish va tarqatishga tayyorlash uchun statistik tahlil usullari va qoidalarini amalda qo‘llash maqsadida GSBPM milliy modelining ma’lumotlarni tahlil qilish bosqichi doirasida dastlabki statistik materiallarni tayyorlash, statistik materiallarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash hamda rasmiy statistika ma’lumotlarini shakllantirishni yakunlash kabi jarayonlardan foydalaniladi.

16. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016- yil 13- apreldagi 404-sonli “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 г.
3. Eurostat-OECD compilation guide on inventories, 2017.
4. Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Qozog‘iston Respublikalarining moddiy aylanma vositalar zaxiralari o‘zgarishini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomlari.

1-jadval

Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining zaxirada bo'lgan davri

T/r	Ko'rsatkichlar	Formula	Hisob-kitoblar natijasi
1	Hisobot ma'lumotlari bo'yicha davr boshiga zaxiralarning qiymati	In_{t_1}	2 809 859,6
2	Hisobot ma'lumotlari bo'yicha davr oxiriga zaxiralarning qiymati	In_{t_2}	2 849 614,5
3	Kuzatilayotgan davr uchun oraliq iste'molning diskret qiymati	IC	1 330 307,3
4	III chorak (oylar hisobida)	$t_2 - t_1$	3
5	Moddiy aylanma vositalari zaxiralarining zaxirada bo'lgan davri (oy)	$TR = \frac{In_{t_2} + In_{t_1}}{2} \cdot \frac{1}{IC} \cdot (t_2 - t_1)$	5

2-jadval

Moddiy aylanma vositalar zaxiralari qiymatining o'rtacha narxlarda o'zgarishi

T/r	Ko'rsatkichlar	Formula	Hisob-kitoblar natijasi
1	Hisobot ma'lumotlari bo'yicha davr boshiga zaxiralarning qiymati	In_{t_1}	2 909 859,6
2	Hisobot ma'lumotlari bo'yicha davr oxiriga zaxiralarning qiymati	In_{t_2}	3 249 614,5
3	Bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri boshida zaxirada saqlangan tovarlarning o'rtacha narx indeksi	$\bar{I}_{p0}$	107,0
4	Bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri oxirida zaxirada saqlangan tovarlarning o'rtacha narx indeksi	$\bar{I}_{pn}$	115,9
5	Bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri o'rtacha narxlar indeksi	$\bar{I}_p$	113,5
6	O'rtacha narxlarda moddiy aylanma vositalar zaxiralari qiymatining o'zgarishi	$ChIn_{\Delta} = In_{t_2} * \frac{\bar{I}_p}{\bar{I}_{pn}} - In_{t_1} * \frac{\bar{I}_p}{\bar{I}_{p0}}$	95 696,3

**Moddiy aylanma vositalar zaxiralari qiymatining narxlar hisobiga o'zgarishi
yoki "Xolding foyda (zarar)"ni hisoblash**

T/r	Ko'rsatkichlar	Formula	Hisob-kitoblar natijasi
1	Hisobot ma'lumotlari bo'yicha davr boshiga zaxiralarning qiymati	In_{t_1}	2 909 859,6
2	Hisobot ma'lumotlari bo'yicha davr oxiriga zaxiralarning qiymati	In_{t_2}	3 249 614,5
3	Bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri boshida zaxirada saqlangan tovarlarning o'rtacha narx indeksi	$\bar{I}_{p0}$	107,0
4	Bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri oxirida zaxirada saqlangan tovarlarning o'rtacha narx indeksi	$\bar{I}_{pn}$	115,9
5	Bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri o'rtacha narxlar indeksi	$\bar{I}_p$	113,5
6	Moddiy aylanma vositalar zaxiralari qiymatining narxlar hisobiga o'zgarishi yoki "Xolding foyda (zarar)"	$HG = (In_{t_2} - In_{t_1}) - \left(In_{t_2} * \frac{\bar{I}_p}{\bar{I}_{pn}} - In_{t_1} * \frac{\bar{I}_p}{\bar{I}_{p0}} \right)$	244 058,6

4-jadval

Moddiy aylanma vositalar zaxiralarini hisoblash namunasi

Davr	Korxonalarning buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha zaxiralarning qiymati			Zaxiralarni qayta baholash uchun narx indekslari					Hisobot davridagi zaxiralarning o'rtacha qiymati		Hisobot davridagi zaxira qiymati-ning o'rtacha narxlarda o'zgarishi	Xolding foyda (zarar)
	Davr boshi	Davr oxiri	Zaxira qiymatining o'zgarishi	Oylik zanjirli indekslar (o'tgan oylarga nisbatan)	O'tgan yil dekabr oyiga nisbatan indekslar	Zaxiralarni saqlash davridagi (3 oy) o'rtacha narx indeksi		Bazis davriga nisbatan hisobot choragida o'rtacha narxlar indeksi	Davr boshi	Davr oxiri		
						Davr boshi	Davr oxiri					
A	1	2	3=2-1	4	5	6	7	8	9	10	11=10-9	12=3-11
oktabr o'yil				103,3	97,0							
noyabr o'yil				100,1	97,1							
dekabr o'yil				103,0	100,0							
yanvar	14 885,9			99,7	99,7	98,0			15 447,1			
fevral				98,9	98,6			101,9				
mart		16 407,9	1 552,0	109,0	107,4		101,9			16 407,9	960,8	591,2
aprel	16 407,9			103,3	111,0	101,9			17 792,7			
may				99,2	110,1			110,5				
iyun		18 257,9	1 850,0	100,3	110,4		110,5			18 257,9	465,2	1 384,8
iyul	18 257,9			105,9	116,9	110,5			19 315,4			
avgust				99,6	116,5			116,9				
sentabr		16 237,6	-2 020,3	100,7	117,3		116,9			16 237,6	-3 077,8	1 057,5
oktabr	16 237,6			101,4	119,0	116,9			16 446,0			
noyabr				99,7	118,6			118,4				
dekabr		21 760,2	5 522,6	99,2	117,7		118,4			21 760,2	5 314,2	208,4
yillik	14 885,9	21 760,2	6 874,3								3 662,4	3 241,9